

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYANING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi,

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchi, p.f.f.d (PhD)

h.saidova2020@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada pedagogik kommunikatsiyaning nazariy-metodologik asoslari, uning pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashdagi o'rni hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Muloqot, kommunikatsiya va pedagogik kommunikatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlarini ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Pedagogik kommunikatsiyaning predmeti, obyekti, funksiyalari, tarkibiy komponentlari va metodologik yondashuvlari tizimli ravishda tavsiflangan. Tadqiqot natijalari pedagogik kommunikatsiya o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik kommunikatsiya, muloqot, kommunikativ kompetensiya, pedagogik jarayon, interaksiya, persepsiya, ta'lim sifati, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В статье проанализированы теоретико-методологические основы педагогической коммуникации, её роль в обеспечении эффективности педагогического процесса, а также тенденции развития в современной системе образования. На основе научных источников раскрыты сущность и содержание понятий «общение», «коммуникация» и «педагогическая коммуникация», их взаимосвязь и отличительные особенности. Системно охарактеризованы предмет, объект, функции, структурные компоненты и методологические подходы педагогической коммуникации. Результаты исследования показывают, что педагогическая коммуникация является одним из ключевых факторов формирования профессиональной компетентности педагога.

Ключевые слова: педагогическая коммуникация, общение, коммуникативная компетентность, педагогический процесс, интеракция, перцепция, качество образования, педагогические технологии.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of pedagogical communication, its role in ensuring the effectiveness of the educational process, and the current development trends within the modern educational system. Based on scientific sources, the study reveals the essence and content of the concepts of communication, interaction, and pedagogical communication, highlighting their interrelationships and distinctive features. The subject, object, functions, structural components, and methodological approaches of pedagogical communication are systematically characterized. The findings indicate that pedagogical communication is one of the key factors contributing to the formation of teachers' professional competence.

Keywords: pedagogical communication, communication, communicative competence, educational process, interaction, perception, quality of education, pedagogical technologies.

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelining joriy etilishi pedagog faoliyatiga yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda o'qituvchi faqat bilim beruvchi subyekt emas, balki ta'lim jarayonining kommunikativ koordinatori, fasilitatori va moderatoriga aylanmoqda.

Shu sababli pedagogik kommunikatsiya masalalari pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasining kesishgan nuqtasida shakllangan dolzarb

ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Pedagogik kommunikatsiyaning samaradorligi o'quvchilarning motivatsiyasi, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, ta'lim sifati va ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik kommunikatsiya muammolari xorijiy va MDH olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan. Hususan, A.A.Leontev pedagogik muloqotni pedagogik jarayonning tarkibiy elementi sifatida o'rgangan. B.F.Lomov kommunikativ faoliyatning psixologik mexanizmlarini tahlil qilgan. G.M.Andreeva muloqotning kommunikativ, interaktiv va perseptiv jihatlarini ajratib ko'rsatgan. A.V.Mudrik kommunikatsiyani ijtimoiylashuv vositasi sifatida talqin etgan.

Shuningdek, N.V.Kuzmina, V.A.Yakunin, M.M.Baxtin, V.S.Bibler, Sh.A.Amonashvili, K.Rodgers, J.Raven va boshqa olimlar pedagogik kommunikatsiyaning turli nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etganlar.

Tarixiy jihatdan, XX asrgacha ilmiy muomalada asosan "muloqot" tushunchasi qo'llanilgan bo'lib, "kommunikatsiya" atamasi keyinchalik keng tarqaldi. Muloqot shaxslar o'rtasidagi axborot almashinuvi sifatida universal tushuncha bo'lib, turli fanlar tomonidan o'rganiladi.

A.V. Mudrik muloqotning turli shakllarini hususan, og'zaki va yozma nutq, tasviriy vositalar, musiqa, ommaviy axborot vositalari va boshqalarga ajratadi. R.Konechny va M. Bouhal esa muloqotning nizoli vaziyatlarda salbiy oqibatlariga olib keluvchi turlarini ko'rsatib o'tadi: destruktiv, avtoritar va soxta muloqot shakllariga ajratadi.

L.R. Munirova esa "muloqot" va "kommunikativ faoliyat" tushunchalarini mazmunan yaqin, o'zaro sinonim tushunchalar sifatida ko'rib chiqadi.

"Muloqot" va "kommunikativ faoliyat" sinonim tushunchalar bo'lishiga qaramay, muloqot va kommunikativ jarayonlar sezilarli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadval). Muloqot va kommunikatsiyaning xususiyatlarini tahlil qilish asosida muloqotning kommunikativ jihatini ajratib ko'rsatish mumkin. Ushbu jihat muloqotni axborot almashinuvi jarayoni sifatida talqin etish bilan bog'liq.

1-jadval. Muloqot va kommunikatsiya tushunchalarining qiyosiy tavsifi

Muloqotning xususiyatlari	Kommunikatsiyaning xususiyatlari
Ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik jarayon	Asosan axborot uzatishga yo'naltirilgan jarayon
Axborot, hissiyot, qarash va munosabatlarni qamrab oladi	Asosan axborot va ma'lumot almashinuvini o'z ichiga oladi
O'zaro tushunish va hamkorlikka yo'naltirilgan	Axborotni yetkazish va qabul qilishga yo'naltirilgan
Ikki tomonlama va faol o'zaro ta'sirga asoslanadi	Ko'pincha yuboruvchi va qabul qiluvchi modeliga asoslanadi
Emotsional va shaxsiy jihatlar muhim o'rin tutadi	Belgilar tizimi (til, kod, signal) muhim ahamiyatga ega
Shaxslararo munosabatlarni shakllantiradi	Axborot almashinuvi samaradorligini ta'minlaydi
Ijtimoiylashuv va shaxs rivojining asosi hisoblanadi	Axborot jarayonlarini tashkil etishning asosiy vositasi
Murakkab va ko'p omilli jarayon	Nisbatan aniq va tuzilmaviy jarayon

Bugungi kunda maktab amaliyotida pedagoglar, ayniqsa yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida ma'lum qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat real pedagogik kuzatuvlarda ham tasdiqlanadi. Biroq muammoning sababi o'quvchilarning "yomonlashuvi" emas. Aksincha, zamonaviy o'quvchilar avvalgi avlodlardan farqli ravishda yangi ijtimoiy-madaniy sharoitda shakllanmoqda.

Muammo shundaki, o'qitish va tarbiyalash usullari har doim ham bolalarning tez o'zgarib borayotgan ehtiyojlari va rivojlanish dinamikasiga moslashib ulgurmaydi. Shu sababli pedagogik faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Muhokama va natija. Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida o'qituvchining roli sezilarli darajada o'zgardi va murakkablashdi. Endilikda o'qituvchi faqatgina bilim beruvchi manba emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini yo'naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi davrda o'quvchilar o'z bilimlarining katta qismini maktabdan tashqarida, turli axborot manbalari orqali egallamoqda. Shu bois ilgari ustun bo'lgan nazoratga asoslangan yondashuv o'rnini tobora ko'proq hamkorlikka asoslangan pedagogik munosabatlar egallamoqda. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning mazmuni va xarakterini tubdan o'zgartirmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining umumiy pedagogik madaniyati va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar izchil ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogning eng muhim sifatlaridan biri — o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, o'zaro munosabatlarni to'g'ri tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish qobiliyatidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda bu sifatlar o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi sifatida talqin etiladi.

Shu bilan birga, o'qituvchining bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyati, avvalo, ularga nisbatan samimiy hurmat va mehr-muhabbatga asoslanishi lozim. Bu holat pedagogikada o'qituvchining kasbiy yo'nalganligi sifatida izohlanadi.

Taniqli pedagog V.A. Suhomlinskiy ta'kidlaganidek, bolalarni sevish qobiliyati tayyor bilim sifatida o'rgatilmaydi, u pedagogning shaxsiy tajribasi, ichki dunyosi va kasbiy faoliyati jarayonida shakllanadi.

Agar pedagogik kommunikatsiya o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida qaralsa, uning asosiy maqsadi axborot almashinuvi, samarali o'qitish va o'rganishni ta'minlash, qulay psixologik muhitni yaratish hamda hissiy aloqani shakllantirishdan iborat (T.A.Stefanovskaya). Shu nuqtai nazardan, pedagogik kommunikatsiyaning asosini turli kommunikativ vositalar orqali amalga oshiriladigan muloqot tashkil etadi. U o'zaro tushunish, o'zaro talablar va mas'uliyat, shuningdek ta'lim jarayonidagi vaziyatlarni birgalikda anglash va muhokama qilishga asoslanadi.

Biroq, pedagogik kommunikatsiya faqat axborot uzatish bilan cheklanib qolmaydi. Uning samaradorligi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ma'lum darajada hamkorlik va o'zaro ta'sir mavjud bo'lishiga bog'liq. Ya'ni, o'qituvchi nafaqat ta'sir ko'rsatuvchi, balki o'quvchilarning fikri va faoliyati ta'sirini qabul qiluvchi subyekt sifatida ham namoyon bo'lishi zarur.

Pedagogik kommunikatsiya jarayonida keskin tanqidiy yondashuv ustuvor bo'lmasligi lozim. Unda qat'iy tasniflash yoki o'zgarmas stereotiplarga yo'l qo'yilmaydi. Baholash jarayoni esa butunlay inkor etilmaydi, balki o'zaro baholash va o'zini o'zi baholash shakllari bilan boyitiladi.

Shu nuqtai nazaridan aytadigan bo'lsak, pedagogik kommunikatsiya bu pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi maqsadli axborot almashinuvi, o'zaro ta'sir va hamkorlikni tashkil etishga qaratilgan murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi.

Pedagogik kommunikatsiya o'z mazmuniga ko'ra murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u faqat axborot almashinuvi bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayonda o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida bilim, tajriba, qadriyat, emotsional munosabat va ijtimoiy xulq-atvor namunalari uzatiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik kommunikatsiyaning kommunikativ, interaktiv va perseptiv komponentlari o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, **kommunikativ komponent** pedagogik jarayonda axborot almashinuvini ta'minlovchi asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. Mazkur komponent orqali o'qituvchi o'quvchilarga bilim, tushuncha, ko'rsatma, savol, topshiriq va baholash mezonlarini yetkazadi. Ta'lim oluvchi esa o'z fikri, savoli, javobi, munosabati va o'zlashtirish darajasi orqali mazkur jarayonda faol ishtirok etadi. Demak, kommunikativ komponent bir tomonlama axborot uzatish emas, balki ikki tomonlama mazmunli axborot almashinuvi sifatida qaralishi lozim. Uning samaradorligi nutqning aniqligi, izchilligi, mantiqiyliqi, tushunarligi, pedagogik ohang, savol-javob madaniyati hamda verbal va noverbal vositalardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Ikkinchidan, **interaktiv komponent** pedagogik jarayon subyektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va hamkorlikni tashkil etadi. Bu komponent o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni faqat "ta'sir ko'rsatuvchi" va "ta'sirni qabul qiluvchi" shaklida emas, balki hamkorlikka asoslangan faol munosabat sifatida talqin qilish imkonini beradi. Interaktiv komponent dars jarayonida guruhviy ish, muammoli vaziyatlar, munozara, bahs, loyiha faoliyati, rolli o'yinlar va hamkorlikdagi topshiriqlar orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur komponentning rivojlanganligi o'quvchilarda faollik, tashabbuskorlik, mas'uliyat, hamkorlik madaniyati va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, **perseptiv komponent** ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bir-birini idrok etishi, tushunishi, baholashi va emotsional jihatdan qabul qilishi bilan bog'liqdir. Pedagogik kommunikatsiyada o'qituvchining o'quvchini shaxs sifatida ang'lay olishi, uning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, psixologik holati va o'zlashtirish

imkoniyatlarini hisobga olishi muhim ahamiyatga ega. Perseptiv komponent pedagogik empatiya, refleksiya, kuzatuvchanlik, ijtimoiy sezgirlik va pedagogik takt bilan bevosita bog'liq. Agar o'qituvchi o'quvchining ichki holatini to'g'ri anglay olsa, unga mos pedagogik yondashuvni tanlaydi va ta'lim jarayonida qulay psixologik muhit yaratadi.

Shu jihatdan, pedagogik kommunikatsiyaning mazkur uch komponenti bir-birini to'ldiradi. Kommunikativ komponent axborot almashinuvini ta'minlash, interaktiv komponent o'zaro faoliyat va hamkorlikni tashkil etadi, perseptiv komponent esa ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro tushunish va ishonchni mustahkamlaydi. Ularning uyg'unligi pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, o'quvchilar motivatsiyasini kuchaytirish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Pedagogik kommunikatsiya ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida nafaqat axborot almashinuvini, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini, ijtimoiylashuvini va kasbiy shakllanishini ham ta'minlaydi. Pedagogik kommunikatsiyaning samaradorligi uning bajaradigan funksiyalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur funksiyalar pedagogik jarayon subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik kommunikatsiyaning kommunikativ, interaktiv va perseptiv komponentlari o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritishi natijasida uning bir qator muhim funksiyalari amalga oshadi. Ushbu funksiyalar pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Axborot almashish funksiyasi pedagogik kommunikatsiyaning asosiy va eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu funksiya orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar, tajribalar va ma'lumotlar uzatiladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi yangi bilimlarni bayon qiladi, topshiriqlar beradi, metodik ko'rsatmalarni tushuntiradi va o'quvchilarning bilimlarini baholaydi. O'quvchilar esa savollar berish, fikr bildirish, muammolarni muhokama qilish va o'zlashtirish natijalarini namoyish etish orqali axborot almashinuvida faol ishtirok etadilar. Mazkur funksiya nafaqat bilimlarni uzatish, balki ularni to'g'ri qabul qilish, tushunish va qayta ishlashni ham nazarda tutadi. Shu sababli axborot almashishning samaradorligi nutq madaniyati, kommunikativ vositalardan foydalanish darajasi va qayta aloqa mexanizmlarining mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik kommunikatsiyaning tartibga solish funksiyasi ta'lim jarayonini boshqarish va muvofiqlashtirish bilan bog'liqdir. O'qituvchi kommunikatsiya vositasida o'quvchilarning faoliyatini tashkil etadi, ularning harakatlarini yo'naltiradi hamda dars jarayonida intizom va tartibni ta'minlaydi. Mazkur funksiya orqali o'quv faoliyatining maqsadlari belgilanadi, vazifalar taqsimlanadi, bajarilgan ishlar nazorat qilinadi va zarur hollarda tuzatishlar kiritiladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'limda interfaol metodlar va jamoaviy faoliyatni tashkil etishda tartibga solish funksiyasining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Motivatsion funksiya o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Pedagogik kommunikatsiya jarayonida o'qituvchining rag'batlantiruvchi so'zlari, ijobiy baholashi, qo'llab-quvvatlashi va ishonchi o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Motivatsion funksiyaning samarali amalga oshirilishi o'quvchilarda bilim olishga ehtiyoj, mustaqil fikrlashga intilish, ijodkorlik va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan ijobiy kommunikativ muhit o'quvchilarning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda ularni yuqori natijalarga erishishga undaydi.

Pedagogik kommunikatsiya tarbiya jarayonining ham muhim vositasi hisoblanadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot jarayonida nafaqat bilimlar, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar va xulq-atvor namunalarining ham uzatilishi sodir bo'ladi. Tarbiyaviy funksiya orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, mas'uliyat, insonparvarlik, bag'rikenglik, mehnatsevarlik va kasbiy etika kabi sifatlar shakllanadi. O'qituvchining shaxsiy namunalari, nutq madaniyati, muomala uslubi va pedagogik odobi tarbiyaviy ta'sirning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Refleksiv funksiya pedagogik kommunikatsiya ishtirokchilarining o'z faoliyati va xulq-atvorini tahlil qilishi hamda baholashiga xizmat qiladi. Mazkur funksiya o'qituvchi va o'quvchilarga o'z harakatlarining samaradorligini anglash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Refleksiya jarayonida o'quvchilar o'z bilimlari, qobiliyatlari va faoliyat natijalariga tanqidiy yondashishni o'rganadilar. O'qituvchi esa o'zining pedagogik faoliyatini baholab, kommunikativ usullarini takomillashtirib boradi. Natijada pedagogik jarayonning sifati muntazam ravishda oshib boradi.

Pedagogik kommunikatsiyaning rivojlantiruvchi funksiyasi shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Muloqot jarayonida o'quvchilar fikrlash, tahlil qilish, muammolarni hal etish, bahs-munozara yuritish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Shuningdek, pedagogik kommunikatsiya o'quvchilarning nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiyasi, liderlik qobiliyati va jamoada ishlash malakalarining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Integrativ funksiya pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilarini yagona maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu funksiya orqali o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona va ta'lim muassasasi o'rtasida samarali hamkorlik munosabatlari shakllanadi. Integrativ funksiya ta'lim, tarbiya va rivojlantirish jarayonlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Natijada pedagogik jarayonning yaxlitligi saqlanib, barcha subyektlarning faoliyati umumiy pedagogik maqsadlarga yo'naltiriladi.

Shunday qilib, pedagogik kommunikatsiyaning axborot almashish, tartibga solish, motivatsion, tarbiyaviy, refleksiv, rivojlantiruvchi va integrativ funksiyalari o'zaro bog'liq holda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu funksiyalarning to'laqonli

amalga oshirilishi pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik kommunikatsiya zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kommunikatsiya o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi oddiy axborot almashinuvi jarayonidan ko'ra kengroq mazmunga ega bo'lib, u hamkorlik, o'zaro ta'sir, ijtimoiy munosabatlar va shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar pedagogik kommunikatsiyaning kommunikativ, interaktiv va perseptiv komponentlari o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritishini ko'rsatdi. Kommunikativ komponent ta'lim jarayonida axborot almashinuvini ta'minlasa, interaktiv komponent o'quv faoliyatini tashkil etish va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Perseptiv komponent esa pedagogik jarayon ishtirokchilarining bir-birini anglash, tushunish va baholash mexanizmlarini shakllantirib, ijobiy psixologik muhit yaratishga imkon beradi.

Shuningdek, pedagogik kommunikatsiyaning axborot almashish, tartibga solish, motivatsion, tarbiyaviy, refleksiv, rivojlantiruvchi va integrativ funksiyalari ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlovchi muhim mexanizmlar ekanligi aniqlandi. Mazkur funksiyalarning samarali amalga oshirilishi o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtirish hamda ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Zamonaviy raqamli ta'lim muhitida pedagogik kommunikatsiyaga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Shu sababli pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, innovatsion kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonida dialogik va hamkorlikka asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Demak, pedagogik kommunikatsiyani takomillashtirish ta'lim sifati, pedagogik faoliyat samaradorligi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri bo'lib, ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Максимова, А. А. Основы педагогической коммуникации : учебно-методическое пособие— ОГУ, 2012
2. Михальская А. К. Педагогическая риторика. История и теория. — М., 1998. — С. 43.
3. Schramm W. The Nature of Communication Between Humans // Process of Effects of Mass Communication / Rev. ed. by Wilbur Schramm and Donald F.Roberts. — Urbana, 1971. — P. 17.
4. Грушевицкая Т.Г., Попков В.Д., Садохин А.П. Основы межкультурной коммуникации: учебник для вузов / под ред. А.П.Садохина. — М., 2002
5. Троянская Светлана Леонидовна Педагогическая коммуникация: методология, теория и практика. Учебное пособие. Ижевск: УдГУ, 2011 – 12с.